



## EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TASIRI

**B. N. Tursunov Assistent. Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agratexnologiyalar Instituti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning mazmun mohiyatida ekologik muammolar va unlarning jamiyat tarraqiyotiga salbiy tasiri, muammoliy sharoyitning mazmun-mohiyatini,

tatqiqotning maqsadi va vazifalarini o'zida aks ettirish bilan birga O'zbekistonda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ekologik nazorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmi, bu borada amalga oshirilayotgan davlat siyosati haqida tushuncha beradi.

**Kalit so`zlar:** ekologiya, muammo, ekologik muammo, global muammo, atrof-muhit, iqlim, davlat, siyosat, qonun, Orol gengizi, Orol muammosi.

**Annotation:** in the essence of the content of this article, environmental problems and the negative impact of them on the social sphere, reflecting the content and essence of problematic sharoyit, the purpose and objectives of the strike, together with improving the public administration system in the field of Ecology and environmental protection in Uzbekistan, the mechanism for regulating relations in the field of Environmental Control,

**Keywords:** ecology, problem, environmental problem, global problem, environment, climate, state, politics, law, Oral sea, Oral problem.

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida er yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sofabiat haqida gap yuritish mushkul. Er yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifoslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur etkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri — Orolbo'yи hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: "Bugungi kunda har bir



mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda”<sup>1</sup>.

Qonunchilik palasasi tomonidan 2013-yil 12-noyabrdan qabul qilingan Senat tomonidan 2013-yil 12-dekabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-363-sonli Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagagi 216-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida nizom, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-iyuldagagi “Majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 238-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 21-apreldagi PQ-2915-son qarori va shu kabi normative huquqiy hujjatlar ekologiya, ekologik nazorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 3 oktyabrdagi PQ-3956-son Qaroriga muvofiq: Davlat ekologiya qo‘mitasi tarkibidagi Bioxilmassallik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiysi va chiqindilarning hosil bo‘lishi, to‘planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko‘milishi va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiysi negizida yuridik shaxs tashkil etmagan holda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha inspeksiysi tashkil etildi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida 29-sonli qarori qabul qilindi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidan

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 3 oktyabrdagi PQ-3956-son Qarori



Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, qulay ekologik vaziyatni barqaror ta'minlash, hududiy birliklarning samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining maqsadlariga muvofiqlashtirish hamda davlat boshqaruvida ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi doirasida davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida quyidagilar tuzilgan:

- biologik xilma-xillik va qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiysi va yuridik shaxsni tashkil qilmasdan chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, yo'qotish, qayta ishslash, ko'mib tashlash va yo'q qilish nazorati inspeksiysi bazasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish nazorati inspeksiysi;
- Respublika ixtisoslashtirilgan sanitariya tozalash korxonalari assotsiatsiyasi;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi va billing tizimi asosida davlat unitar korxonasi shaklida ekologik axborot markazi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimediyani joriy etish.

Davlat ekologiya qo'mitasi qoshida O'zbekiston ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish ilmiy-tekshirish instituti, O'zbekiston ekologik qo'mitasi, «Eko-Energiya» Ilmiyinnovatsion markazi, Ilmiy-Axborotlar markazi kabi bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda<sup>3</sup>.

*Yangi tahrirdagi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan va 2023-yil 1-mayidan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'lim inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar 49-moddasida takidlanadi:*

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

<sup>3</sup> Nigmatov A.N. O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi. – T., 2004



Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi<sup>4</sup>.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof - muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, er yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz, er usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan. Har yili 11 million hektar tropik o'rmon kesilmoqda. Yo'qotishlar o'rmonlarni tiklash ishlariga nisbatan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me'yordan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi. SHuningdek, ozon qatlaming emirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdar qatlaming yo'qolib borishi, tropik o'rmonlarning kesilishi, cho'llanish, chuchuk suv manbalari va bioxilmassillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-modda



allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma'noda global ekologik muammolarga aylandi<sup>5</sup>.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inkirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan. “Orol muammosi” vujudga keldi. Bu haqda quyidagi ma'lumotlar fikrimizni isbotlaydi. Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli “o'lik” dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. getktarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuzli aerozollarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln. tonnagacha chang ko'tariladi. Shu bilan bir vaqtda, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llanish sur'atlari o'sib bormoqda<sup>6</sup>.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirdagi);
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidan;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018 yil 3 oktyabrdagi PQ-3956-son Qarori
4. Akramov Z.M., Rafikov A.A. Прошлое, настоящее и будущее Аральского моря. – Т., 1990.
5. Nig'matov A.N. O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi. – Т., 2004.
6. Rafikov A.A. Geoekologik muammolar. – Т., 1997.

<sup>5</sup> Rafikov A.A. Geoekologik muammolar. – Т., 1997

<sup>6</sup> Ergashev H. Hashimova S.A. Hozirgi zamон ekologik muammolar va ularning insoniyatga ta'siri haqida “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations” VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 26 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7



7. Ergashev A. Umumiy ekologiya. – T., 2003.
8. To‘xtayev A. Ekologiya. – T., 2000.
9. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi . – T.,2000-2005 yy.
10. Ergashev H. Hashimova S.A. Hozirgi zamon ekologik muammolar va ularning insoniyatga ta’siri haqida “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations” VOLUME 2 SPECIAL ISSUE 26 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

